

**BO'G'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARNING PRAGMATIK
KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA**

Bozorova Gulruh Furqat Qizi

Webster University MA TESOL program

E-mail: gulruhbozorova695@gmail.com

Kirish: Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki nutq egasining munosabatini, fikrini, maqsadini aniq ifodalovchi vositadir. Nutqning mazmunan va shaklan to'g'ri yetkazilishida bo'g'lovchilar va tinish belgilarining tutgan o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, ularning pragmatik kuchi – ya'ni kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi ta'sirchanligi – so'zlovchining niyatini, kayfiyatini, urg'usini, shubhasini yoki ta'kidini aniqlashtirib beradi. Bu pragmatik funksiyalar har bir til tizimida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Mazkur tezisda o'zbek va ingliz tillaridagi bo'g'lovchi birliklar va tinish belgilarining nutqdagi vazifasi va ularning pragmatik yuki tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo aloqalar tobora jadallashib, turli tillar o'rtasida samarali muloqot zaruriyati ortib bormoqda. Xususan, tarjima jarayonida til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni to'g'ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi

Asosiy qism: Bo'g'lovchilar – bu so'zlar yoki gaplar orasida grammatik yoki mantiqiy aloqani ifodalovchi birliklardir. Ammo ularning vazifasi faqat grammatik bog'lov emas, balki ma'no va munosabat ifodalashda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan: O'zbek tilida: “lekin”, “ammo”, “xususan”, “biroq”, “ya'ni” singari bo'g'lovchilar nutq egasining shubhasini, qarama-qarshi fikrini, aniqlashtirish yoki umumlashtirish niyatini ifoda etadi. Masalan, “U yaxshi inson, lekin ishga kechikadi.” Bu yerda lekin bo'g'lovchisi qarama-qarshilik va salbiy ohangni bildiradi. Ingliz tilida: “however”, “although”, “because”, “therefore”, “in fact” kabilar orqali muloqotdagi o'zaro sabab-oqibat, aniqlik, e'tiroz kabi pragmatik niyatlar ifodalanadi. Masalan: “He is clever. However, he lacks experience.” Bu

yerda however – qarshi fikr bildiruvchi marker. Shunday qilib, bo'g'lovchilar pragmatik nuqtai nazardan fikrning ohangini, munosabatini va urg'usini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Tinish belgilarini grammatik vosita sifatida talqin qilish an'anaviy yondashuvdir. Ammo zamonaviy pragmatolingvistik tadqiqotlar tinish belgilarining nutqning mazmuniy qatlamiga kuchli ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Ular nafaqat fikrning tugaganini bildiradi, balki intonatsiya, kayfiyat, e'tibor markazi, hatto nutq egasining psixologik holatini ifoda etadi: O'zbek tilida: nuqta (.), vergul (,), tire (–), so'roq (?) va undov (!) belgilarining ishlatilishi orqali aytilgan fikrning urg'usi yoki kuchi belgilanadi. Masalan: “Senga aytdim!” – bu gapda undov belgisi gapni buyruq yoki his-tuyg'u bilan to'ldiradi. Ingliz tilida: ayni belgilar o'zbek tilidagiga o'xshash, biroq colon (:) va semicolon (;) belgilarining kengroq va mantiqiy bog'lovchi vazifasi bor. Masalan: “She had only one hobby: reading.” Bu yerda colon tafsilot ifodalaydi, ya'ni nutqni qasddan kengaytiradi. Shuningdek, ingliz tilida ellipsis (...) – uzilish, davom etayotgan fikr; dash (—) – kuchli pauza, urg'u; question tag (?) – so'roq va tasdiq aralash nuanslarni ifoda etishda qo'llanadi. O'zbek tili ag'lab hollarda intonatsiyaviy ifoda bilan pragmatik ma'no beradi: gap ohangi, pauza, takrorlash, xalq og'zaki nutqidagi iboralar orqali bo'g'lovchilar o'rnini bosadi. Ingliz tilida esa strukturaviy-grammatik vositalar bilan bu holat yaqqol ifodalanadi. O'zbekcha: “Sen kech keldingmi?” – bu oddiy so'roq, ammo intonatsiya orqali masxara, tanbeh yoki hayronlik ifodalanadi. Inglizcha: “You came late, didn't you?” – question tag yordamida shubha va tanbeh birgalikda ifodalanadi. Bu farq pragmatik kuchning har bir til tizimidagi ifoda usulini ko'rsatadi. Ingliz tilida sintaktik va tinish belgilar orqali ko'proq mexanik tizim mavjud bo'lsa, o'zbek tilida esa og'zaki nutqqa xos emotsionallik va ohang muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Bo'g'lovchilar va tinish belgilarining pragmatik kuchi tildagi muloqotni samarali tashkil etishda beqiyos ahamiyatga ega. Ular yordamida so'zlovchi o'zining hissiy munosabatini, shubhasini, ta'kidini yoki e'tirozini noverbal vositalarsiz ham ifoda eta oladi. O'zbek va ingliz tillarini taqqoslaganda,

pragmatik kuchning ifodalanish vositalari o'ziga xos – o'zbek tilida emotsionallik va kontekst muhim o'rin egallasa, ingliz tilida struktura va belgilar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa har ikki til o'rganishda yoki tarjimada nafaqat semantik, balki pragmatik tafovutlarga ham e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Bu sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun tarjimashunoslik sohasida integrativ metodik yondashuvlar, tarjimonlar tayyorlashda madaniy komponentning ustuvorligini ta'minlash, shuningdek, madaniyatlararo muloqotga yo'naltirilgan lingvomadaniy korpuslar ishlab chiqilishi lozim. Shundagina tarjimada mazmuniy aniqlik, madaniy muvofiqlik va pragmatik uyg'unlik ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alimova, M. T. (2019). Tarjimaning lingvomadaniy asoslari. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
2. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). London: Routledge.
3. Bassnett, S. (2014). Translation Studies (4th ed.). London: Routledge.
4. Hatim, B., & Mason, I. (2005). The Translator as Communicator. London: Routledge.